

Aholi umumiy daromadlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yilning yanvar-dekabr holatiga aholi umumiy daromadlari 344,7 trln. so'mni, nominal o'sish sur'ati 121,9 % ni tashkil etdi.

Aholi umumiy daromadlari:


Umumiy hajmi
344,7 trln. so'm



Nominal o'sish sur'ati
121,9 %



Real o'sish sur'ati
106,5 %



Aholi jon boshiga umumiy daromadlari:

Umumiy hajmi
10,3 mln. so'm



Nominal o'sish sur'ati
119,7 %



Real o'sish sur'ati
104,5 %




Aholi daromadlari bo'yicha real o'sish sur'atlarini hisoblashda narx omillari ta'sirini chiqarib tashlash maqsadida inflyatsiya ko'rsatkichlarining asosiy turlaridan biri - iste'mol narxlarini indeksidan (INI) foydalaniladi.

Iste'mol narxlarining o'zgarishi sababli o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati 106,5 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-dekabr holatiga aholi jon boshiga umumiy daromadlari 10,3 mln. so'mni, nominal o'sish sur'ati 119,7 % ni, real o'sish sur'ati esa 104,5 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga o`rtacha umumiy daromadlari bo`yicha Toshkent shahrida (20037,5 ming so`m) hamda Navoiy (16372,4 ming so`m), Buxoro (12723,5 ming so`m), Xorazm (10821,1 ming so`m) va Toshkent viloyatlarida (10401,5 ming so`m) o`rtacha respublika darajasidan yuqori ko`rsatkichlar qayd etilganligi kuzatildi.


2019 yilning yanvar-dekabr holatiga O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlari hajmi, ming so'm




Aholi jon boshiga daromadlarning eng quyi ko`rsatkichlari esa Qoraqalpog'iston Respublikasi (7753,1 ming so'm) hamda Farg'ona (7907,4 ming so`m) va Namangan (8035,1 ming so`m) viloyatlarida qayd etildi.

Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o'sishi Toshkent shahriga (10,0 %) to'g'ri keladi. Shuningdek, Navoiy (7,2 %), Namangan (6,1 %) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (6,1 %) hamda Surxondaryo (5,3 %), Sirdaryo va Qashqadaryo viloyatlarida (4,6 %) aholi jon boshiga umumiy daromad ko'rsatkichlarining real o'sishi respublika darajasidan yuqorini tashkil etgan.

2019-yilning yanvar-dekabr holatiga O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlarining real o'sish sur'atlari, %



Aholi umumiy daromadlari tarkibi




Aholi umumiy daromadlari hajmining sezilarli darajada o'sishi asosan umumiy daromadlar tarkibida 69,1 % ulushga ega bo'lgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) va 25,3 % ni tashkil etuvchi transfertlardan olingan daromadlarning sezilarli o'zgarishi hisobiga yuzaga kelgan.

- Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar
- Transfertlardan olingan daromadlar
- Mol-mulkdan olingan daromadlar
- Shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar

Hududlarning aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning (yollanib ishlovchilarning ish haqi va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) eng yuqori ulushi Navoiy (83,6 %) viloyatida kuzatildi. Aksincha, Toshkent shahri, Xorazm, Samarqand, Farg'ona, Surxondaryo, Andijon, Namangan viloyatlari, hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibi (hudud aholi umumiy daromadlariga nisbatan, %)



Shuningdek, Xorazm va Samarqand viloyatlarida transfertlardan olingan daromadlar aholi umumiy daromadlariga nisbatan 30 % dan yuqori ulushni tashkil etdi.





Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar

Aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar va yollanma ishchilarning daromadlari) sezilarli ulushni tashkil etadi.




2019 yilning yanvar-dekabr oylari ma'lumotlariga ko'ra mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi 69,1 % ni tashkil etdi.


Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan 118,7 % ni tashkil etdi hamda aholi umumiy daromadlari nominal hajmining 13,3 % ga o'sishini ta'minladi.




Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar yollanma ishchilarning daromadlari hamda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromatlardan tashkil topadi.




Yollanma ishchilarning daromadlari:



2019 yilning yanvar-dekabr oylarida aholi umumiy daromadlari tarkibida yollanma ishchilarning daromadlari 27,1 % ni tashkil qildi. Joriy davrda yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati 125,1 % ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining 6,6 % o'sishini ta'minladi.



2019 yilning yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, %)



Yollanma ishchilar daromadlarining eng yuqori nominal o'sish sur'ati Navoiy (130,6 %), Xorazm (128,8 %) va Namangan (127,4 %) viloyatlarida qayd etildi.

Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar

42,0 %



Aholi umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi




114,9 %



2018 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan nominal o'sish sur'ati

Hududlar bo'yicha umumiy daromadlar tarkibida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar ulushi, %




Hududlarda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning ulushi turlicha va 15,5 % dan (Toshkent shahrida) 60,2 % gacha (Jizzax viloyatida) o'zgarib turadi.

Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar


Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning 1 % ga o'sishi umumiy daromadlar hajmining 0,45 % ga o'sishiga olib keladi.

Hududlar bo'yicha mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning

1 % ga o'sishining aholi umumiy daromadlari hajmi o'sishiga ta'siri, %



Jami mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromatlarda hududlarning ulushi



Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning asosiy ulushi Samarqand (11,4 %), Andijon (9,8 %) va Toshkent (9,6 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Kamroq ulushga ega bo'lgan hududlar Sirdaryo viloyati (2,5 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,5 %) hamda Navoiy (5,0 %) viloyati hisoblanadi.





Mol-mulkdan olingan daromadlar

Mol-mulkdan olingan daromadlarning umumiy hajmi

11,9 trln. so'm




2018-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati

137,6 %




Aholi umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi

3,5 %



Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibi, %




- Foizlar
- Dividendlar
- Muallif haqi
- Boshqa mulkiy daromadlar


Aholi umumiy daromadlari hajmining o'zgarishiga mol-mulkdan olingan daromadlarning ta'siri juda kam. Joriy davrda mol-mulkdan olingan daromadlar aholi umumiy daromadlari hajmining 1,2 % ga o'sishini ta'minladi.

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida mol-mulkdan olingan daromadlar hajmining uchdan ikki qismi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelib, 66,5 % ni tashkil etdi. Toshkent (5,5 %), Samarqand (4,4 %), va Farg'ona (4,0 %) viloyatlari keyingi yuqori ulushga ega bo'lgan hududlar hisoblanadi.

Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibida hududlarning ulushi



Mol-mulkdan olingan daromadlarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, %



2019 yilning yanvar-dekabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra o'tgan yilning mos davriga nisbatan mol-mulkdan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 137,6 % ni tashkil etdi. Hududlar bo'yicha eng yuqori o'sish sur'ati Namangan viloyatida (144,1 %) qayd etildi.



Transfertlardan olingan daromadlar


Ushbu davrda aholining umumiy daromadlari hajmida transfertlarning ulushi 1,4 % punktga oshdi va 25,3 % ni tashkil etdi.

Transfertlardan olingan daromadlar ijtimoiy transfertlardan (pensiylar, nafaqalar, stipendiyalar) va boshqa joriy transfertlardan olingan daromadlardan tashkil topadi.


2019 yilning yanvar-dekabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, transfertlardan olingan daromadlarning 39,2 % ni ijtimoiy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qilgan bo'lsa, 60,8 % ni boshqa joriy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qildi.

O'tgan davr mobaynida pensiya, nafaqa va stipendiyalarning o'zgarishi aholi umumiy daromadlarining 2,8 % ga o'sish imkonini berdi.


Transfertlardan olingan daromadlar tarkibi, %



Ijtimoiy transfertlar tarkibi, %



Ijtimoiy transfertlarning turlari bo'yicha o'sish sur'ati, %




Ijtimoiy transfertlar tarkibida pensiyalar eng ko'p ulushni - 82,5 % ni tashkil qilgan bo'lsa, nafaqalar 13,7 % ni, stipendiyalar 3,8 % ni tashkil etdi.

2018 yilning mos davri ma'lumotlari bilan taqqoslaganda pensiyalarning o'sish sur'ati 129,2 % ni, nafaqalarning o'sish sur'ati 142,7 % ni tashkil etdi.



2019 yilning yanvar-dekabr oylarida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida jami 4,7 trln. so'm miqdorida nafaqa va moddiy yordamlar ajratildi. Shundan 53,8 % budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan moliyalashtiriladigan davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar va 46,2 % respublika va mahalliy budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan.

Hududlar bo'yicha ijtimoiy nafaqalarning shakllanish manbalari, %



■ Budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan

■ Respublika va mahalliy budjet mablag'lari hisobidan

Boshqa joriy transfertlar


2019 yilning yanvar-dekabr oylari bo'yicha boshqa joriy transfertlar tarkibiga kiruvchi respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining nominal o'sish sur'ati 128,7 % ni tashkil etdi. Aholi umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,8 % punktga oshib, 15,4 % ni tashkil etdi. Ushbu daromadlarning o'zgarishi aholi umumiy daromadlari nominal qiymatining 4,2 % ga o'sishini ta'minlab berdi.



2019 yilda aholi umumiy daromadlari tarkibida respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalarining eng yuqori ulushi Xorazm viloyatida (24,4 %) kuzatildi.


Shuningdek, Samarqand (20,6 %), Andijon (20,4 %), Surxondaryo (19,3 %), Buxoro (17,9 %), Namangan (17,3 %), Farg'ona (16,3 %), Qashqadaryo (16,2 %) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (15,9 %) respublika darajasidan yuqori ulushni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining ulushi, %






Aholi umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar



2019 yilning yanvar-dekabr oylari bo'yicha dastlabki ma'lumotlariga ko'ra aholi umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi 59,5 % ni, boshqa daromadlar 40,5 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning hudud aholi umumiy daromadlaridagi ulushi turlicha: eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (70,6 %) kuzatilgan bo'lsa, eng kam ulush esa Toshkent shahrida (48,3 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi, %



Davlat statistika qo'mitasi
 Aholi turmush darajasi va kuzatuvlari
 statistikasi boshqarmasi
 Nashr uchun mas'ul: J.Yuldashev
 Aloqa telefoni: (71) 230-81-66